



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Naziliya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	



UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA "KASBIY RIVOJLANISH KUNI" VA "KASBIY RIVOJLANISH SOATI" TADBIRLARI: AMALIYOT TAHLILI

Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich

A.Avloniy nomidagi pedagogic mahorat milliy instituti,
 Hududlarda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'limi boslig'i

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" (KRK) va "Kasbiy rivojlanish soati" (KRS) tadbirlarining tashkiliy-pedagogik mexanizmlari, bosqichma-bosqich joriy etilishi hamda 2024–2025 va 2025–2026-o'quv yillaridagi amaliyot natijalari empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda hujjat tahlili, statistik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikki o'quv yili davomida tizimga 1 550 ta tayanch maktab, 292 nafar master-trener, 3 901 nafar mentor-o'qituvchi hamda 443 743 nafardan ortiq fan o'qituvchisi jalb etilgan. Shuningdek, krk.avloniy.uz raqamli platformasi orqali yetakchi o'qituvchilarning 98,13 foizi tizimga kiritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kaskadli o'qitish modeli (master-trener → mentor-o'qituvchi → yetakchi o'qituvchi → fan o'qituvchisi) hamda xalqaro hamkorlik (British Council, NILE, MCE, Gyote instituti va boshqalar) malaka oshirish jarayonining qamrovi va sifatini sezilarli darajada oshirgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, kasbiy rivojlanish kuni, kasbiy rivojlanish soati, kaskadli o'qitish, master-trener, mentor-o'qituvchi, yetakchi o'qituvchi, raqamli ta'lim platformasi, pedagogik kadrlar.

Abstract: The article provides an empirical analysis of the organizational and pedagogical mechanisms, phased implementation, and practical outcomes of the "Professional Development Day" (PDD) and "Professional Development Hour" (PDH) initiatives introduced in general secondary education institutions of the Republic of Uzbekistan to ensure the continuous professional development of teaching staff during the 2024–2025 and 2025–2026 academic years. The study employed document analysis, statistical analysis, and comparative analysis methods. The findings indicate that within two academic years, the system engaged 1,550 reference schools, 292 master trainers, 3,901 mentor teachers, and more than 443,743 subject teachers. In addition, 98.13% of lead teachers were registered through the krk.avloniy.uz digital platform. The results demonstrate that the cascade training model (master trainer → mentor teacher → lead teacher → subject teacher), together with international cooperation involving the British Council, NILE, MCE, the Goethe-Institut, and other organizations, significantly improved both the coverage and quality of the in-service training process.

Key words: continuous professional development, in-service training, professional development day, professional development hour, cascade training, master trainer, mentor teacher, lead teacher, digital education platform, teaching staff.

Аннотация: В статье на основе эмпирических данных проанализированы организационно-педагогические механизмы, этапы внедрения и результаты практической реализации мероприятий "День профессионального развития" (ДПР) и "Час профессионального развития" (ЧПР), внедрённых в общеобразовательных учреждениях Республики Узбекистан с целью обеспечения непрерывного профессионального развития педагогических кадров в 2024–2025 и 2025–2026-учебных годах. В исследовании использованы методы анализа документов, статистического и сравнительного анализа. Результаты показывают, что в течение двух учебных лет в систему были вовлечены 1 550 опорных школ, 292 мастер-тренера, 3 901 ментор-учитель и более 443 743 учителей-предметников. Кроме того, через цифровую платформу krk.avloniy.uz в систему было внесено 98,13 % ведущих учителей. Установлено, что каскадная модель обучения (мастер-тренер → ментор-учитель → ведущий учитель → учитель-предметник), а также международное сотрудничество (British Council, NILE, MCE, Институт Гёте и другие) существенно повысили охват и качество процесса повышения квалификации.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, день профессионального развития, час профессионального развития, каскадное обучение, мастер-тренер, ментор-учитель, ведущий учитель, цифровая образовательная платформа, педагогические кадры.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining sifati va samaradorligi bevosita pedagog kadrlarning kasbiy mahorati hamda uzluksiz rivojlanishi bilan bog'liq. XXI-asr ta'lim paradigmasi o'qituvchidan nafaqat fan asoslarini puxta bilishni, balki yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlarni doimiy ravishda o'zlashtirib borishni ham talab etmoqda. Shu ma'noda, malaka oshirishning an'anaviy, davriy modelaridan uzluksiz kasbiy rivojlanish (Continuous Professional Development) modeliga o'tish global tendensiya sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son 1 qarori bilan maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish vazifasi belgilab berildi. Mazkur qaror ijrosi doirasida pedagog va mutaxassis kadrlarning kasbiy o'sishini doimiy hamda tizimli tarzda ta'minlovchi yangi shakllar – "Kasbiy rivojlanish soati" (KRS) hamda tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish kuni" (KRK) tadbirlari joriy etildi.

Vazirlikning 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan tartibga muvofiq, mazkur tadbirlar fanlar kesimida bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Tizimning konseptual asosi kaskadli o'qitish modeli bo'lib, unda master-trenerlar mentor-o'qituvchilarni, mentorlar yetakchi o'qituvchilarni, yetakchi o'qituvchilar esa o'z hududidagi fan o'qituvchilarini o'qitish orqali bilim va kompetensiyalar muntazam ravishda quyi bo'g'inlarga uzatiladi. Mazkur yondashuv qisqa muddatda keng qamrovli o'qitishni tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – KRK va KRS tadbirlarining tashkiliy-metodik mexanizmlarini, ularning 2024–2025 va 2025–2026-o'quv yillaridagi amaliy natijalarini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, tizimning samaradorlik darajasini baholash hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda birinchi marta milliy miqyosda kaskadli kasbiy rivojlanish modelining empirik natijalari hududlar va fanlar kesimida kompleks tarzda baholanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Christopher Day o'zining "Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning" asarida pedagogning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini asoslab, o'qituvchining refleksiv faoliyati va amaliy tajribasi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

T.R. Guskey tadqiqotlarida esa kasbiy rivojlanishning samaradorligi o'qituvchilarning dars amaliyotidagi o'zgarishlari hamda o'quvchilarning natijalari orqali baholanishi zarurligi ko'rsatib berilgan. B. Avalos uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimlari pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda muhim mexanizm ekanini qayd etadi.

Kasbiy rivojlanishning zamonaviy modellari va metodologik asoslari A. Kennedy tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, muallif kasbiy rivojlanishning transmissiv, tranzaksion va transformativ modellarini ajratib ko'rsatadi.

Linda Darling-Hammond, M.E. Hyler va M. Gardner tadqiqotlarida samarali professional rivojlanishning asosiy komponentlari sifatida amaliy faoliyatga yo'naltirilganlik, hamkorlikda o'qitish, muntazam qayta aloqa hamda uzoq muddatli metodik qo'llab-quvvatlash omillari alohida ta'kidlangan. OECD tomonidan amalga oshirilgan TALIS xalqaro tadqiqotida ham o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikning muhim ko'rsatkichi sifatida baholangan.

O'zbekistonda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish masalalari J.A. Hamidov tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, muallif milliy ta'lim tizimida kaskadli o'qitish modeli va raqamli platformalarning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qiladi.

So'nggi yillarda joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari pedagoglarning amaliy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi institutsional mexanizm sifatida shakllanmoqda. Xususan, krk.avloniy.uz elektron platformasi orqali treninglarni monitoring qilish, baholash va sertifikatlash jarayonlarining raqamlashtirilishi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimining shaffofligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-6981085>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot aralash (mixed methods) yondashuv asosida olib borilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirilgan. Mazkur yondashuv malaka oshirish jarayonining tashkiliy-pedagogik jihatlarini hamda raqamli ko'rsatkichlar dinamikasini chuqur o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning bosh maqsadi – KRK va KRS tadbirlarining tashkiliy modeli, qamrov ko'rsatkichlari hamda dastlabki natijalarini ilmiy asosda baholashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun KRK va KRS tadbirlarining huquqiy-me'yoriy asoslari va tashkiliy mexanizmlarini hujjat tahlili usuli asosida o'rganish, ikki o'quv yili davomida o'qitishga jalb etilgan pedagoglarning sonini fanlar va hududlar kesimida statistik tahlil qilish, kaskadli o'qitish modeli (master-trener → mentor-o'qituvchi → yetakchi o'qituvchi → fan o'qituvchisi) zanjirining funksional samaradorligini baholash, krk.avloniy.uz raqamli platformasining monitoring va baholash funksiyalari samaradorligini aniqlash hamda tahlil natijalari asosida tizimni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Empirik tahlil uchun ma'lumotlar quyidagi rasmiy manbalardan to'plandi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori; Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli, 2024-yil 27-sentabrdagi 317-sonli, 2025-yil 31-yanvardagi 34-sonli, 2025-yil 30-iyundagi 216-sonli, 2025-yil 8-sentabrdagi 336-sonli hamda 2026-yil 6-yanvardagi 2-sonli buyruqlari; A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan ishlab chiqilgan rasmiy hisobotlar; krk.avloniy.uz elektron platformasining 2026-yil 23-yanvar holatiga ko'ra agregatsiyalashgan ma'lumotlari.

Tadqiqotda hujjat tahlili (document analysis), statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil hamda strukturaviy-funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Hujjat tahlili asosida huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tartiblar va o'quv dasturlarining mazmuni hamda izchilligi tizimli ravishda o'rganildi. Statistik tahlil yordamida qamrov ko'rsatkichlari absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar (foiz, o'rtacha qiymat, ulushlar) asosida hisoblandi hamda taqsimot tahlili amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil orqali 2024–2025 va 2025–2026-o'quv yillari, hududlar hamda fanlar bo'yicha ko'rsatkichlar o'zaro solishtirildi. Kontent-tahlil yordamida o'quv reja va dasturlari mazmuni hamda taqriz natijalari sifat jihatdan tahlil qilindi. Strukturaviy-funksional tahlil asosida esa kaskadli o'qitish zanjirining bo'g'inlari va ularning o'zaro funksional aloqalari o'rganildi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining 14 ta hududini, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini qamrab oladi hamda 2024-yil oktabr oyidan 2026-yil yanvar oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Tadqiqot statistik (administrativ) ma'lumotlarga asoslanganligi sababli, o'qituvchilarning subyektiv qoniqish darajasi hamda o'quv natijalariga ta'sirini chuqur baholash maqsad qilib qo'yilmadi. Mazkur yo'nalishlar keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli mavzu sifatida baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

KRK va KRS tadbirlarining huquqiy-tashkiliy asoslari

“Kasbiy rivojlanish kuni” (KRK) va “Kasbiy rivojlanish soati” (KRS) tadbirlarining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori tashkil etadi. Mazkur qarorda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida “Kasbiy rivojlanish soati”, tayanch maktablarda esa qo'shimcha ravishda “Kasbiy rivojlanish kuni”ni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli buyrug'i bilan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi tasdiqlandi.

Kasbiy rivojlanish tadbirlarining umumiy hajmi yiliga 72 soat etib belgilangan bo'lib, shundan 36 soati KRK doirasida, 36 soati esa KRS doirasida amalga oshiriladi. KRK mashg'ulotlari oyining birinchi va uchinchi haftalarida, KRS mashg'ulotlari esa ikkinchi va to'rtinchi haftalarida tashkil etilishi nazarda tutilgan. Mazkur ko'rsatkich xalqaro tajribada tavsiya etilgan uzluksiz kasbiy rivojlanishning minimal me'yorlari bilan mos keladi hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bosqichma-bosqich joriy etish va dastlabki natijalar (2024–2025 o'quv yili)

KRK va KRS tadbirlarini joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuv tanlangan bo'lib, ushbu yondashuv yangi modelni amaliyotda sinovdan o'tkazish, yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va keyingi bosqichlarda ularni takomillashtirish imkonini berdi.

Birinchi bosqich 2024-yil 2-oktabrdan boshlanib, vazirning 2024-yil 27-sentabrdagi 317-son buyrug'i asosida aniq fanlar hamda tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun tashkil etildi. Ushbu bosqichda matematika, informatika, axborot texnologiyalari, fizika, kimyo, biologiya va geografiya fanlari o'qituvchilari qamrab olindi. Jara-

yonni tashkil etish uchun 126 nafar master-trener va 792 nafar mentor-o'qituvchi tayyorlandi. Natijada KRK doirasida 20 167 nafar yetakchi o'qituvchi, KRS doirasida esa 90 810 nafar fan o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlariga jalb qilindi.

Ikkinchi bosqich 2025-yil 31-yanvar va 15-fevraldan boshlab ingliz tili hamda boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida amalga oshirildi. Vazirning 2025-yil 31-yanvardagi 34-son buyrug'i asosida ushbu bosqichda 53 nafar master-trener va 806 nafar mentor-o'qituvchi tayyorlandi. KRK doirasida 19 848 nafar yetakchi o'qituvchi, KRS doirasida esa 144 062 nafar fan o'qituvchisi qamrab olindi. Mazkur natijalar boshlang'ich ta'lim va xorijiy tillar yo'nalishlarida kasbiy rivojlanish tizimining keng qamrovda joriy etilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2024–2025 o'quv yili davomida to'rt yo'nalish bo'yicha jami 276 664 nafar fan o'qituvchisi kasbiy rivojlanish tadbirlariga jalb qilindi. Shundan ingliz tili o'qituvchilari 47 651 nafarni (17,2%), boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari 117 118 nafarni (42,3%), aniq fan o'qituvchilari 54 202 nafarni (19,6%), tabiiy fan o'qituvchilari esa 57 693 nafarni (20,9%) tashkil etdi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ulushi yuqori bo'lishi ushbu toifadagi pedagoglar sonining umumiy tizimdagi salmog'i katta ekanligi bilan izohlanadi.

1-jadval: KRK va KRS tadbirlariga jalb etilgan kadrlarning bosqichlar va o'quv yillari kesimida taqsimoti

№	Bosqich va davr	Master-trenerlar	Mentor-o'qituvchilar	Yetakchi o'qituvchilar
1	I bosqich (2024-y. oktabr): aniq va tabiiy fanlar	126	792	20 167
2	II bosqich (2025-y. yanvar–fevral): ingliz tili va boshlang'ich ta'lim	53	806	19 848
	Jami (2024–2025 o'quv yili)	179	1 598	40 015
3	2025–2026 o'quv yili (11 ta fan yo'nalishi)	292	3 901	88 859

2025–2026 o'quv yiliga tayyorgarlik bosqichi

2025–2026 o'quv yilida KRK va KRS tadbirlarini 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha to'liq qamrov asosida tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur yo'nalishlar qatoriga ijtimoiy fanlar, ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, tabiiy fanlar, aniq fanlar, ingliz, nemis va fransuz tillari, texnologiya, tasviriy san'at va chizmachilik hamda boshlang'ich ta'lim fanlari kiritilgan. Ushbu jarayon vazirning 2025-yil 30-iyundagi 216-son buyrug'i asosida amalga oshirildi.

Tayyorgarlik bosqichida, avvalo, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish ishlari tashkil etildi. A.Avloniy nomi-dagi Pedagogik mahorat milliy instituti, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Hududiy pedagogik mahorat markazlari hamda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tizimidan 120 nafar malakali mutaxassis jalb qilinib, ishchi guruh shakllantirildi. 2025-yil 15–17-iyul kunlari Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning 55 nafar tajribali mutaxassislari ishtirokida o'quv-seminari tashkil etildi. Seminar yakunlari asosida 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 72 soatlik (36 KRK va 36 KRS) o'quv reja va dasturlar ishlab chiqildi. Dasturlar bo'yicha jami 24 ta taqriz olinib, ular Institut kengashining 2025-yil 23-iyuldagi 8-son qarori bilan tasdiqlashga tavsiya etildi hamda vazirning 2025-yil 8-sentabrdagi 336-son buyrug'i bilan rasmiy tasdiqlandi.

Keyingi bosqichda tayanch maktablarni belgilash ishlari amalga oshirildi. Hududiy boshqarmalar va pedagogik mahorat markazlari bilan hamkorlikda umumta'lim fanlari bo'yicha 1 550 ta tayanch maktab ro'yxati shakllantirildi va 2025-yil 8-sentabrdagi 336-son buyruq bilan tasdiqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tayanch maktablarning asosiy qismi bir yoki ikki fan yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan bo'lib, ayrim hududlarda uch va undan ortiq fan yo'nalishlarini qamrab oluvchi tayanch maktablar ham tashkil etilgan. Xususan, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida ko'p yo'nalishli tayanch maktablar soni nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

2-jadval: Tayanch maktablarning hududlar kesimida fanlar bo'yicha taqsimoti

Hudud	Jami	1 fan	2 fan	3 fan	4 fan	5 fan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	108	67	21	18	2	0
Andijon viloyati	124	104	18	2	0	0
Buxoro viloyati	76	43	26	6	1	0
Jizzax viloyati	84	19	23	37	5	0
Qashqadaryo viloyati	191	42	57	90	2	0
Navoiy viloyati	79	51	14	12	2	0
Namangan viloyati	105	62	21	19	3	0



Samarqand viloyati	175	52	22	99	2	0
Surxondaryo viloyati	130	101	23	6	0	0
Sirdaryo viloyati	81	55	19	7	0	0
Toshkent viloyati	159	125	27	7	0	0
Farg'ona viloyati	89	34	25	25	4	1
Xorazm viloyati	65	27	17	21	0	0
Toshkent shahar	84	63	18	3	0	0
Jami	1 550	845	331	352	21	1

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, eng ko'p tayanch maktablar Qashqadaryo viloyatida – 191 ta, Samarqand viloyatida – 175 ta hamda Toshkent viloyatida – 159 ta tashkil etilgan. Mazkur ko'rsatkichlar ushbu hududlarda umumta'lim maktablari sonining yuqoriligi va pedagogik infratuzilmaning nisbatan keng rivojlanganligi bilan izohlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, tayanch maktablarning asosiy qismi faqat bitta fan yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'lib, bu jami maktablarning 54,5 foizini yoki 845 tasini tashkil etadi. Ikki fan yo'nalishi bo'yicha faoliyat yurituvchi tayanch maktablar ulushi 21,4 foizni (331 ta), uch fan yo'nalishi bo'yicha faoliyat yurituvchilar esa 22,7 foizni (352 ta) tashkil etgan. Shu bilan birga, to'rt yoki besh fan yo'nalishi bo'yicha tayanch sifatida belgilangan maktablar soni atigi 22 tani, ya'ni umumiy ko'rsatkichning 1,4 foizini tashkil etadi. Bu holat aksariyat maktablarda barcha fanlar bo'yicha bir vaqtning o'zida tayanch vazifasini bajarish uchun zarur moddiy-texnik baza hamda yuqori malakali pedagogik kadrlar salohiyati yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

Keyingi bosqichda master-trenerlarni saralash ishlari amalga oshirildi. Hududiy pedagogik mahorat markazlari tomonidan tavsiya etilgan 297 nafar nomzod orasidan 2025-yil 22–25-iyul kunlari saralash jarayoni o'tkazildi va yakuniy natijalarga ko'ra 292 nafar master-trener tanlab olindi. Tahlillarga ko'ra, eng katta ulush tabiiy fanlar yo'nalishiga to'g'ri kelib, ushbu sohada 40 nafar master-trener faoliyat yuritishi belgilandi, bu umumiy ko'rsatkichning 13,7 foizini tashkil etdi. Shuningdek, aniq fanlar yo'nalishida 31 nafar (10,6%) master-trener saralangan. Ushbu natijalar STEM-ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, nemis tili (13 nafar) va fransuz tili (14 nafar) yo'nalishlarida master-trenerlar sonining kamligi ushbu fanlarning maktablarda nisbatan tor doirada o'qitilishi bilan bog'liq.

3-jadval: Master-trenerlarning fan yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti (2025–2026)

No	Fan yo'nalishi	Master-trenerlar (nafar)	Ulushi (%)
1	Ijtimoiy fanlar	29	9.9
2	Ona tili va adabiyot	28	9.6
3	Rus tili va adabiyoti	28	9.6
4	Tabiiy fanlar	40	13.7
5	Aniq fanlar	31	10.6
6	Ingliz tili	28	9.6
7	Nemis tili	13	4.5
8	Fransuz tili	14	4.8
9	Texnologiya	28	9.6
10	Tasviriy san'at va chizmachilik	26	8.9
11	Boshlang'ich ta'lim	27	9.2
	Jami	292	100,0

Mentor-o'qituvchilarni tanlash jarayoni ham qat'iy kasbiy mezonlar asosida tashkil etildi. 2025-yil 5–12-avgust kunlari davomida 9 425 nafar nomzod o'qituvchi suhbat asosida baholandi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 3 901 nafar pedagog mentor-o'qituvchilikka tavsiya etildi, bu umumiy nomzodlarning 41,4 foizini tashkil etdi. Bundan tashqari, 157 nafar nomzod zaxira ro'yxatiga kiritildi, 5 367 nafari esa tavsiya etilmadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mentor-o'qituvchilarni tanlashda nafaqat pedagogik tajriba, balki metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya va liderlik salohiyatiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Hududlar kesimida eng ko'p nomzod Samarqand (1 182 nafar) va Qashqadaryo (1 127 nafar) viloyatlaridan qatnashgan bo'lib, ushbu hududlarda ehtiyojning yuqoriligi kuzatilgan.

4-jadval: Mentor-o'qituvchilarni saralash natijalari hududlar kesimida

Hudud	Umumiy nomzod	Tavsiya etildi	Zaxira	Tavsiya etilmadi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	802	281	16	505
Andijon viloyati	567	275	25	267
Buxoro viloyati	614	233	4	377
Jizzax viloyati	589	201	1	387
Qashqadaryo viloyati	1 127	466	23	638
Navoiy viloyati	508	148	8	352
Namangan viloyati	491	263	6	222
Samarqand viloyati	1 182	462	23	697
Surxondaryo viloyati	992	365	7	620
Sirdaryo viloyati	399	134	6	259
Toshkent viloyati	576	346	16	214
Farg'ona viloyati	586	363	10	213
Xorazm viloyati	615	227	5	383
Toshkent shahar	377	137	7	233
Jami	9 425	3 901	157	5 367

O'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish jarayonida xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan keng foydalanildi. 2025-yil 25–27-avgust kunlari A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida British Council hamda Norwich Institute for Language Education bilan hamkorlikda 40 nafar mutaxassis ishtirokida seminar tashkil etildi. Shuningdek, Gyote instituti bilan nemis tili, Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi hamda Alliance Française de Tachkent bilan fransuz tili bo'yicha seminar-treninglar o'tkazildi. Hamkorlik jarayoniga Marshall Cavendish Education tashkiloti ham jalb qilindi. Mazkur hamkorliklar orqali ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim mazmuniga moslashtirish va zamonaviy metodik materiallarni yaratish imkoniyati kengaydi.

Tayyorgarlik treninglari doirasida 2025-yil 9–11-sentabr kunlari A.Avloniy nomidagi institutda 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 292 nafar master-trener uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Keyingi bosqichda, 17–20-sentabr kunlari institut hamda hududiy pedagogik mahorat markazlarida 3 901 nafar mentor-o'qituvchi uchun qisqa muddatli treninglar o'tkazildi. Ushbu jarayon "master-trener → mentor-o'qituvchi" modeli asosida bilim va metodik tajribani ko'p bosqichli uzatish tizimining samarali ishlashini ta'minladi.

2025–2026 o'quv yilida KRK va KRS tadbirlarining amaliy bosqichi boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi 293 ta tayanch maktabda 10 134 nafar yetakchi o'qituvchi ishtirokida 2025-yil 4-oktabr kuni rasman yo'lga qo'yildi. 2026-yil 23-yanvar holatiga ko'ra, jami 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 8 ta KRK va 7 ta KRS mashg'ulotlari haftaligi amalga oshirilgan bo'lib, bu yil davomida rejalashtirilgan 12 ta KRK va 12 ta KRS mashg'ulotlarining muhim qismi muvaffaqiyatli bajarilganini ko'rsatadi. Mazkur natijalar tizimning amaliy jihatdan barqaror ishlay boshlaganini hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga institutsional mexanizm sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

2025–2026 o'quv yilida KRK va KRS tadbirlariga jalb etilgan o'qituvchilar qamrovi hududlar kesimida tahlil qilinganda, respublika bo'yicha jami 443 743 nafar pedagog mazkur tizimga jalb etilgani aniqlanadi. Eng yuqori qamrov Qashqadaryo viloyatida kuzatilib, bu hududda 50 883 nafar o'qituvchi yoki umumiy qamrovning 11,5 foizi ishtirok etgan. Samarqand viloyatida 49 316 nafar o'qituvchi jalb etilib, bu 11,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 45 646 nafar pedagog qamrab olingan va uning ulushi 10,3 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur hududlarda umumta'lim maktablari va pedagog kadrlar sonining yuqoriligi bilan izohlanadi. Eng past qamrov esa Sirdaryo viloyatida qayd etilgan bo'lib, bu hududda 10 351 nafar o'qituvchi yoki umumiy ko'rsatkichning 2,3 foizi tizimga jalb qilingan.



5-jadval: 2025–2026 o'quv yilida KRK va KRS tadbirlariga jalb etilgan o'qituvchilar (hududlar kesimida)

№	Hudud nomi	Jami qamrov (nafar)	Ulushi (%)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	30 919	7.0
2	Andijon viloyati	36 065	8.1
3	Buxoro viloyati	26 988	6.1
4	Jizzax viloyati	19 001	4.3
5	Qashqadaryo viloyati	50 883	11.5
6	Navoiy viloyati	18 217	4.1
7	Namangan viloyati	34 082	7.7
8	Samarqand viloyati	49 316	11.1
9	Surxondaryo viloyati	41 512	9.4
10	Sirdaryo viloyati	10 351	2.3
11	Toshkent viloyati	31 397	7.1
12	Farg'ona viloyati	45 646	10.3
13	Xorazm viloyati	27 416	6.2
14	Toshkent shahar	21 950	4.9
	Jami	443 743	100,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025–2026 o'quv yilidagi qamrov avvalgi 2024–2025 o'quv yili ko'rsatkichi bilan solishtirilganda sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2024–2025 o'quv yilida 276 664 nafar o'qituvchi jalb etilgan bo'lsa, 2025–2026 o'quv yilida bu ko'rsatkich 443 743 nafarga yetgan. Demak, qamrov 167 079 nafarga yoki 60,4 foizga o'sgan. Bu esa KRK va KRS tadbirlarining bosqichma-bosqich kengaytirilishi amaliy natija berayotganini, tizimga yangi fan yo'nalishlari qo'shilgani va hududiy qamrovning kengayganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt yo'nalishidagi qo'shimcha tadbirlar ham pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2026-yil 6-yanvardagi 2-son buyruqqa asosan 2026-yil 15-yanvardan boshlab Massachusetts texnologiya institutining sun'iy intellekt ta'lim dasturi asosida informatika fani o'qituvchilarini o'qitish uch bosqichda tashkil etilmoqda. Birinchi bosqichda 2 891 nafar o'qituvchi, jumladan, Toshkent shahrining 12 ta tumanidan 326 nafar hamda viloyatlarning 74 ta tumanidan 2 565 nafar pedagog qamrab olinmoqda. Ikkinchi bosqichda esa qo'shimcha 3 412 nafar o'qituvchi jalb etilib, umumiy qamrov 6 467 nafarga yetkazilmoqda. Ushbu yo'nalish o'qituvchilarning sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik tashabbus sifatida baholanadi.

KRK va KRS tadbirlarining keng ko'lamda tashkil etilishi raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni talab etdi. Shu maqsadda A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan krk.avloniy.uz elektron platformasi va unga integratsiyalashgan @krk_avloniy_bot Telegram boti ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu platforma yetakchi o'qituvchilarning treninglardagi davomatini elektron qayd etish, trening yakunida bilim va ko'nikmalarni baholash, mentor-o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotlar sifati bo'yicha qaytar aloqa olish, o'quv materiallarini markazlashgan tarzda yetkazish hamda maxsus dashboard orqali real vaqt rejimida monitoring va tahlil olib borish imkonini beradi.

Platforma samaradorligini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar uning tashkiliy va texnik jihatdan deyarli to'liq yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi. Mentor-o'qituvchilarning platformaga kiritilish darajasi 97,49 foizni, yetakchi o'qituvchilarning kiritilish darajasi esa 98,13 foizni tashkil etgan. Bu natijalar kasbiy rivojlanish jarayonini shaffof, boshqariladigan va monitoring qilish mumkin bo'lgan tizimga aylantirganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, vazirning 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'ining 49-bandiga muvofiq, 82 253 nafar yetakchi o'qituvchi yakuniy nazoratdan o'tib, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida QR-kod bilan tasdiqlangan sertifikatga ega bo'lgan.

Tadqiqot natijalari KRK va KRS tadbirlarining bir qator muhim jihatlarini ochib beradi. Avvalo, kaskadli o'qitish modelining tanlanishi keng hududiy qamrovga ega ta'lim tizimi sharoitida pedagoglarni qisqa muddatda va tizimli ravishda o'qitishning samarali shakli ekanini ko'rsatadi. Ushbu modelda 292 nafar master-trener, 3 901 nafar mentor-o'qituvchi, 88 859 nafar yetakchi o'qituvchi va 351 143 nafar fan o'qituvchisi o'rtasida uzviy metodik aloqa shakllangan. Natijada o'rtacha hisobda har bir master-trener bilvosita 1 519 nafar fan o'qituvchisining kasbiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ko'paytiruvchi samaradorlik kaskadli modelning tashkiliy va iqtisodiy jihatdan maqbul ekanini tasdiqlaydi.

Ikki o'quv yili o'rtasidagi qamrov dinamikasi ham tizimning izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi. 2024–2025 o'quv yilida 276 664 nafar pedagog qamrab olingan bo'lsa, 2025–2026 o'quv yilida bu ko'rsatkich 443 743 nafarga yetgan. Fan yo'nalishlari sonining 4 tadan 11 taga ko'paytirilishi esa kasbiy rivojlanish jarayonining yanada kompleks tus olayotganidan dalolat beradi. Ijtimoiy fanlar, ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, xorijiy tillar, texnologiya, tasviriy san'at va chizmachilik kabi yo'nalishlarning qo'shilishi malaka oshirish tizimining keng qamrovli va inklyuziv mazmun kasb etishini ta'minlagan.

Xalqaro hamkorlik komponenti KRK va KRS tadbirlarining sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. British Council, NILE, Marshall Cavendish Education, Gyote instituti, Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi, Groupe Hatier International va Alliance Française kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv-metodik materiallarning ishlab chiqilishi milliy tajribani xalqaro metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Shuningdek, Massachusetts texnologiya institutining sun'iy intellekt ta'lim dasturi asosida informatika o'qituvchilarini o'qitish tashabbusi raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

krk.avloniy.uz raqamli platformasining yuqori qamrov ko'rsatkichlari kasbiy rivojlanish jarayonining raqamli, shaffof va dalillarga asoslangan boshqaruv tizimiga aylanganini ko'rsatadi. Platformaning 97,49–98,13 foiz darajasidagi qamrovi trening jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, ishtirokchilar faolligini baholash va boshqaruv qarorlarini aniq ma'lumotlar asosida qabul qilish imkonini bermoqda. Sertifikatlarning elektron raqamli imzo va QR-kod orqali tasdiqlanishi esa natijalarni rasmiylashtirish jarayonida ishonchlilik, shaffoflik va nazorat imkoniyatlarini oshiradi.

Mentor-o'qituvchilarni saralash jarayonida tavsiya etilmagan nomzodlar ulushining 56,9 foizni tashkil etgani tanlov mezonlari qat'iy qo'yilganini ko'rsatadi. 9 425 nafar nomzoddan 5 367 nafari tavsiya etilmagani tizimga faqat belgilangan kasbiy talablar va metodik salohiyatga ega pedagoglarni jalb qilishga intilish mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, tavsiya etilmaganlar ulushining yuqoriligi hududiy darajadagi dastlabki saralash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ham ko'rsatadi. Bu holat keyingi bosqichlarda nomzodlarni oldindan tayyorlash, baholash mezonlarini hududlarga aniq yetkazish va saralash sifatini oshirishni talab qiladi.

Mavjud natijalar asosan miqdoriy qamrov ko'rsatkichlariga tayanganligi sababli, kelgusida KRK va KRS tadbirlarining sifat samaradorligini chuqurroq baholash zarur. Xususan, ushbu tizimning o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari, dars sifati, o'quvchilarning ta'lim natijalari, milliy va xalqaro baholash ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, hududlar kesimidagi sifat farqlarini aniqlash, o'qituvchilarning subjektiv qoniqish darajasini baholash hamda mustaqil tashqi monitoring mexanizmlarini joriy etish tizimni yanada takomillashtirish uchun istiqbolli yo'nalishlar sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari Prezident qarori (PQ–231) hamda vazirlik buyruqlari bilan tasdiqlangan mustahkam huquqiy-tashkiliy asosga ega bo'lgan, kaskadli o'qitish modeliga asoslangan tizimli pedagogik mexanizmni tashkil etadi.
2. Bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi (2024–2025-o'quv yili: 4 ta fan yo'nalishi, 276 664 nafar; 2025–2026-o'quv yili: 11 ta fan yo'nalishi, 443 743 nafar) o'zini oqlagan. Bir o'quv yili davomida qamrov 60,4 foizga oshgan hamda fan yo'nalishlarini kengaytirish jarayoni to'liq amalga oshirilgan.
3. Xalqaro hamkorlik, jumladan, British Council, NILE, MCE, Gyote instituti, Fransiya elchixonasi, Groupe Hatier International, Alliance Française hamda MIT kabi tashkilotlar bilan olib borilgan hamkorlik o'quv-metodik mazmuni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va metodologik sifatni oshirishga xizmat qilgan.
4. krc.avloniy.uz raqamli platformasi 97,49–98,13 foizlik yuqori qamrov ko'rsatkichlari orqali tizimning shaffofligi va boshqariluvchanligini ta'minladi. Natijada 82 253 nafar yetakchi o'qituvchi elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan sertifikatlariga ega bo'ldi.



- Mentor-o'qituvchilarni saralash jarayonida 41,4 foizlik qabul ko'rsatkichining qayd etilishi tizimda sifat mezonlari qat'iy qo'llanilganini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar

- Mavjud monitoring tizimini kengaytirish maqsadida o'qituvchilarning subjektiv qoniqishi hamda kasbiy o'sish dinamikasini o'lchovchi qo'shimcha indikatorlarni ishlab chiqish va ularni krk.avloniy.uz platformasiga integratsiyalash tavsiya etiladi.
- KRK va KRS tadbirlarining o'quvchilarning ta'lim natijalariga ta'sirini baholash maqsadida longitudinal (uzoq muddatli) tadqiqotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.
- Tayanch maktablarning fanlar bo'yicha qamrovini optimallashtirish zarur. Hozirgi vaqtda tayanch maktablarning 54,5 foizi faqat bitta fan yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritayotgani sababli, hududlarda 4–5 ta fan yo'nalishini qamrab oluvchi tayanch maktablar tarmog'ini bosqichma-bosqich kengaytirish lozim.
- Mentor-o'qituvchilarni dastlabki saralash bosqichida hududiy boshqarmalar uchun yagona kasbiy mezonlar tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv nomzodlar soni va qabul ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbatni optimallashtirishga xizmat qiladi.
- Sun'iy intellekt va raqamli pedagogika yo'nalishida MIT bilan boshlangan hamkorlikni boshqa fan yo'nalishlariga ham kengaytirish hamda istiqbolda raqamli kompetensiyalarni barcha pedagogik kadrlar uchun majburiy minimum sifatida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2024.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarini o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'i. – Toshkent, 2024.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 27-sentabrdagi 317-son buyrug'i. – Toshkent, 2024.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 31-yanvardagi 34-son buyrug'i. – Toshkent, 2025.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 30-iyundagi 216-son “2025–2026-o'quv yilida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida”gi buyrug'i. – Toshkent, 2025.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 8-sentabrdagi 336-son buyrug'i. – Toshkent, 2025.
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 6-yanvardagi 2-son buyrug'i. – Toshkent, 2026.
- Day, C. Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning. – London: Routledge, 2002. – 256 p.
- Darling-Hammond, L., Hyler, M.E., Gardner, M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017. – 76 p.
- OECD. Teaching and Learning International Survey (TALIS) 2018: Insights and Interpretations. – Paris: OECD Publishing, 2019.
- Guskey, T.R. Professional Development and Teacher Change // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8, No. 3/4. – P. 381–391.
- Avalos, B. Teacher Professional Development in Teaching and Teacher Education over Ten Years // Teaching and Teacher Education. – 2011. – Vol. 27, No. 1. – P. 10–20.
- Kennedy, A. Models of Continuing Professional Development: A Framework for Analysis // Journal of In-service Education. – 2005. – Vol. 31, No. 2. – P. 235–250.
- Hamidov J.A. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: nazariy asoslar va amaliyot // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2023. – № 2. – B. 45–53.
- krk.avloniy.uz – A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti elektron platformasi (rasmiy hisobotlar, 2026-yil 23-yanvar holatiga ko'ra ma'lumotlar).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.